# MEHNATINGIZ TAHSINGA LOYIQ. SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA QURILISH UNIVERSITETI REKTORI CHIDEM JANBAY TURKYILMAZ XONIMGA BAG'ISHLANADI

***Mamadalliyeva Farangiz Latifovna***
*SamDAQU Strategik rejalashtirish koordinatorligi mutaxassisi*



**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand Davlat Arxitektura-Qurilish Universitetining rektori, hurmatli Chidem Janbay Turkyilmaz xonimning ilmiy, pedagogik va rahbarlik faoliyati yoritilgan. Unda xonimning O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim, madaniyat va ilm-fan sohalaridagi aloqalarni mustahkamlashdagi hissasi, universitet taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasi hamda xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtiroki tahlil qilingan. Shuningdek, xonimning yosh avlodni tarbiyalash, ilmiy salohiyatni oshirish va zamonaviy ta'lim standartlarini joriy etish borasidagi tashabbuslari alohida e'tirof etiladi. Maqola O'zbekiston oliy ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlarning yorqin namunasi sifatida Chidem Janbay Turkyilmaz xonim faoliyatini keng yoritadi.

**Kalit so'zlar:** pedagogic rahbarlik, ilmiy salohiyat , xalqaro loyihalar, madaniyat va ilm-fan.

## YOUR DEDICATION AND EFFORTS ARE WORTHY OF HIGH PRAISE. DEDICATED TO MS. ÇIĞDEM CANBAY TÜRKYILMAZ, RECTOR OF SAMARKAND STATE UNIVERSITY OF ARCHITECTURE AND CONSTRUCTION

---

**Annotation** This article is dedicated to the academic, pedagogical, and leadership achievements of Ms. Çiğdem Canbay Türkyılmaz, the Rector of Samarkand State University of Architecture and Construction. It highlights her contributions to strengthening educational, cultural, and scientific ties between Uzbekistan and Turkey,

as well as her significant role in the development of the university. The article analyzes her active participation in international scientific projects and emphasizes her initiatives in educating the younger generation, enhancing scientific capacity, and implementing modern educational standards. Her work is presented as a bright example of the positive transformations taking place in Uzbekistan's higher education system.

**Keywords:** pedagogical leadership, scientific potential, international projects, culture and science

GÖSTERDIĞINIZ ÖZVERI VE ÇALIŞMALAR ÖVGÜYE DEĞERDIR. SEMERKAND DEVLET MIMARLIK VE İNŞAAT ÜNIVERSITESI REKTÖRÜ SAYIN ÇIĞDEM CANBAY TÜRKYILMAZ'A ITHAFEN

---

**Özet .** Bu makale, Semerkand Devlet Mimarlık ve İnşaat Üniversitesi Rektörü Sayın Çiğdem Canbay Türkyılmaz'ın bilimsel, pedagojik ve yönetsel faaliyetlerine ithaf edilmiştir. Makalede, kendisinin Özbekistan ile Türkiye arasındaki eğitim, kültür ve bilimsel ilişkilerin güçlendirilmesine yaptığı katkılar, üniversitenin gelişimine olan büyük etkisi vurgulanmıştır. Ayrıca, uluslararası bilimsel projelere aktif katılımı, genç neslin yetiştirilmesi, bilimsel potansiyelin artırılması ve modern eğitim standartlarının uygulanması yönündeki girişimleri detaylı olarak ele alınmıştır. Sayın Türkyılmaz'ın çalışmaları, Özbekistan yükseköğretim sisteminde yaşanmakta olan olumlu değişimlerin parlak bir örneği olarak sunulmaktadır.

**Anahtar kelimeler:** pedagojik liderlik, bilimsel potansiyel, uluslararası projeler, kültür ve bilim

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimi taraqqiyotida ayollar rahbar sifatida faol ishtirok etib, o'zlarining bilim va tajribalari bilan jamiyat hayotiga beqiyos hissa qo'shmoqda. Ayniqsa, xalqaro tajribaga ega bo'lgan lider ayollar respublikamiz oliy o'quv yurtlarida muhim o'ringa ega bo'lib bormoqda. Shu jumladan, Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universiteti rektori lavozimida faoliyat yuritayotgan Cigdem Janbay Turkyilmaz xonim nafaqat tajribali mutaxassis, balki zamonaviy ta'lim va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shayotgan yetakchi ayol sifatida tanilgan.

Cigdem Janbay Turkyilmaz xonim Turkiya Respublikasi fuqarosi bo'lib, o'z mamlakatida ham ilmiy va pedagogik faoliyati bilan keng e'tirof etilgan. U o'z faoliyatida arxitektura va qurilish sohalariga oid chuqur bilimga ega bo'lib, talim tizimida ilg'or uslublarni joriy etish, innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish bilan ajralib turadi. Samarqand Davlat arxitektura-qurilish universitetining rektori etib tayinlanganidan so'ng, u mazkur dargohda xalqaro tajriba va standartlarga mos ta'lim muhitini shakllantirish, o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ochiq muloqot madaniyatini

rivojlantirish, ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratish bo'yicha samarali tashabbuslarni ilgari surmoqda



Xonim rahbarligida universitetda bir qator xalqaro hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yildi. Chet el universitetlari, ilmiy markazlar va arxitektura institutlari bilan tajriba almashinuvi kuchaytirilib, talabalar va o'qituvchilar uchun xorijda malaka oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bundan tashqari, zamonaviy dizayn, ekologik barqaror qurilish, raqamli texnologiyalar kabi dolzarb yo'nalishlarda ham keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Cigdem Janbay Turkyilmaz xonimning yana bir e'tiborga loyiq jihati – bu insoniylik, adolatparvarlik va ochiqlik tamoyillariga amal qilishidir. U universitet jamoasi bilan yaqindan ishlaydi, yoshlarning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi hamda ayollar yetakchiligini targ'ib etadi

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Cigdem Janbay Turkyilmaz xonim nafaqat ilm-fan va ta'lim tizimida, balki butun jamiyat hayotida ijobiy o'zgarishlar qilayotgan, fidokorona mehnati bilan yoshlarga ilhom manbai bo'layotgan olima va rahbar ayoldir. Uning faoliyati respublikamiz oliy ta'lim sohasining xalqaro miqyosda yuksalishiga, arxitektura va qurilish sohalarida innovatsion rivojlanishga katta turtki bermoqda. Bunday lider shaxslar yoshlarga nafaqat bilim, balki mustaqil fikr va jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham o'rgatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Isxak Kalderon Adizes (2022) Mukammal rahbar "ZUKKO KITOBXON" nashriyoti.
2. Shavkat Razzoqov (2017) Rahbarlik san'ati Lesson Press nashriyoti